



UDK:1:316.77:004

**Temurmaliq ORIPOV,**  
*O'qituvchi, IIV Akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston*  
E-mail: [Temurmaliikoripov@gmail.com](mailto:Temurmaliikoripov@gmail.com), <https://ORCID.org/0009-0007-2333-3034>

*TDTTrU dotsenti, PhD S.Sultanov taqrizi asosida*

## THE PHENOMENON OF SPIRITUAL SECURITY IN THE INFORMATION SOCIETY: A SOCIO- PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

This article examines the socio-philosophical essence of the phenomenon of spiritual security in the context of the information society. The transformation of information into a strategic resource, along with the rapid development of digital communications, social networks, and algorithm-driven environments, is considered a new historical condition that significantly influences human consciousness, values, and spiritual identity. Spiritual security is interpreted not only as protection against external ideological threats but also as the capacity of individuals, society, and the state to maintain spiritual stability, critical thinking, information literacy, and the preservation of national identity.

**Key words:** Information society, spiritual security, social consciousness, digital environment, media culture, spiritual immunity, information threats, transformation of values.

## ФЕНОМЕН ДУХОВНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ: СОЦИАЛЬНО- ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье анализируется социально-философское содержание феномена духовной безопасности в условиях информационного общества. Превращение информации в стратегический ресурс, развитие цифровых коммуникаций, социальных сетей и алгоритмической среды рассматриваются как новая историческая ситуация, оказывающая существенное влияние на сознание человека, его ценности и духовную идентичность. Духовная безопасность интерпретируется не только как защита от внешних идеологических угроз, но и как способность личности, общества и государства сохранять духовную устойчивость, критическое мышление, культуру отбора информации и национальную идентичность.

**Ключевые слова:** Информационное общество, духовная безопасность, общественное сознание, цифровая среда, медиакультура, духовный иммунитет, информационные угрозы, трансформация ценностей.

## AXBOROT JAMIYATIDA MA'NAVY XAVFSIZLIK FENOMENI: IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada axborot jamiyati sharoitida ma'naviy xavfsizlik fenomenining ijtimoiy-falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Axborotning strategik resursga aylanishi, raqamli kommunikatsiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmik muhit inson ongi, qadriyatlarini hamda ma'naviy identikligiga ta'sir ko'rsatayotgan yangi tarixiy holat sifatida baholanadi. Ma'naviy xavfsizlik faqat tashqi g'oyaviy tahdidlardan himoyalaniş emas, balki shaxs, jamiyat va davlatning ma'naviy barqarorligi, tanqidiy tafakkuri, axborotni saralash madaniyati va milliy o'zlikni saqlash qobiliyati sifatida talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** Axborot jamiyati, ma'naviy xavfsizlik, ijtimoiy ong, raqamli muhit, mediamadaniyat, ma'naviy иммунитет, axborot tahdidlari, qadriyatlar transformatsiyasi.

**Kirish.** XXI asrda insoniyat taraqqiyotining asosiy belgilaridan biri axborotning jamiyat hayotidagi o'rni keskin kuchaygani bilan izohlanadi. Bugun axborot faqat xabar yetkazish yoki ma'lumot almashish vositasi emas, balki iqtisodiy rivojlanish, siyosiy boshqaruv, madaniy jarayonlar va ma'naviy hayotni belgilaydigan strategik resursga aylandi. Industrial jamiyatda moddiy ishlab chiqarish va texnika taraqqiyotning yetakchi omili bo'lgan bo'lsa, axborot jamiyatida bilim, ma'lumot, kommunikatsiya, ramzlar va mediaobrazlar inson faoliyatini tashkil etuvchi asosiy kuchlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda[3].

Axborot jamiyati insonga katta imkoniyatlar yaratdi: bilim olish, davlat xizmatlaridan foydalanish, muloqot qilish, kasbiy malaka oshirish va ijodiy faoliyat yuritish imkoniyatlari kengaydi. Biroq axborot oqimining tezligi va ta'sir kuchi ortishi inson ma'naviyati, ijtimoiy ongi va qadriyatlar tizimi uchun yangi sinovlarni ham paydo qildi. Chunki raqamli makonda

inson nafaqat axborot iste'molchisi, balki uni ishlab chiqaruvchi, tarqatuvchi va talqin qiluvchi sub'ektga ham aylanadi.

Shu ma'noda axborot jamiyatida ma'naviy xavfsizlik masalasi faqat tarbiyaviy yoki madaniy muammo emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan fenomenidir. U inson ongi, qalbi, dunyoqarashi, axloqiy tanlovi, ijtimoiy xulqi va milliy o'zligini asrash bilan bog'liq. Maqolaning maqsadi axborot jamiyatida ma'naviy xavfsizlik fenomenining mazmuni, tahdidlari va uni ta'minlashning asosiy falsafiy mexanizmlarini ochib berishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axborot jamiyati va ma'naviy xavfsizlik masalalari D. Bell, M. Kastels va Y. Masuda kabi olimlar tomonidan axborotlashuv va tarmoq jamiyati nazariyalari doirasida tadqiq etilgan. M. McLuhan va Z. Bauman media va globallashuvning inson ongiga hamda qadriyatlar tizimiga

ta'sirini tahlil qilgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa raqamli texnologiyalarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri va mediasavodxonlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur ilmiy qarashlar axborot jamiyatida ma'naviy xavfsizlikning nazariy asoslarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va konseptual umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Axborot jamiyati va tarmoq jamiyati nazariyalari bo'yicha D. Bell, M. Kastels, Y. Masuda kabi olimlarning ilmiy qarashlari o'rganildi. Shuningdek, UNESCO materiallari hamda O'zbekiston Respublikasining axborot va kiberxavfsizlik sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Axborot jamiyati tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarda sivilizatsiya taraqqiyotining yangi bosqichini ifodalovchi muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. D. Bell postindustrial jamiyat haqida fikr yuritir ekan, bilim va nazariy axborotning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni kuchayishini asoslaydi. M. Kastels esa zamonaviy ijtimoiy munosabatlarni "tarmoq jamiyati" tushunchasi orqali izohlab, raqamli texnologiyalar insonlararo aloqalar, iqtisodiy jarayonlar va madaniy kommunikatsiyalar shaklini o'zgartirganini ko'rsatadi[2].

Bunday jamiyatda ma'naviy makonning o'zgarishi, avvalo, inson diqqatining raqamli muhitga ko'chishi bilan bog'liq. Ilgari oila, maktab, mahalla, kitob va jonli muloqot shaxs ma'naviy shakllanishining asosiy manbalari bo'lgan bo'lsa, bugun ular qatoriga internet, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, blogerlar, sun'iy intellekt tizimlari va algoritmik tavsiya mexanizmlari qo'shildi. Bu holat ma'naviy tarbiya sub'ektlarini ko'paytirdi, lekin ular o'rtasidagi maqsad, mas'uliyat va nazorat uyg'unligini murakkablashtirdi.

Raqamli muhit ayniqsa yoshlar uchun faqat axborot olish vositasi emas, balki o'zini namoyon qilish, baholanish, taqlid qilish, muloqotga kirishish va ijtimoiy maqom topish maydoniga aylanmoqda. Manbalarda raqamli platformalar yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatishda "ko'rinmas tarbiyachi" vazifasini bajarayotgani, algoritmlar qaysi axborotni oldinga chiqarishi orqali qiziqish va qarashlar doirasini shakllantirishi ta'kidlanadi.

Axborot jamiyati ma'naviy makonga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, u bilim olish, milliy madaniyatni targ'ib etish, ma'naviy merosni raqamlashtirish va fuqarolik faolligini oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, tekshirilmagan ma'lumotlar, buzg'unchi g'oyalar, zo'ravonlikni yoki iste'molchilik kayfiyatini targ'ib qiluvchi kontent, yolg'on xabarlar va mediamanipulyatsiya ma'naviy xavfsizlik uchun jiddiy tahdid tug'diradi. Demak, muammo texnologiyani rad etishda emas, balki undan inson kamoloti va ijtimoiy barqarorlik yo'lida oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirishdadir.

Ma'naviy xavfsizlik tushunchasi mohiyatan inson, jamiyat va davlatning ma'naviy hayotini izdan chiqaruvchi omillardan himoyalashini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini saqlashini, shaxsning axloqiy mustaqilligi va ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlashini anglatadi. Biroq bu tushunchani faqat "himoya" ma'nosida cheklash to'g'ri emas. Ma'naviy xavfsizlik jamiyatning o'z ma'naviy-axloqiy asoslarini yangilash, global o'zgarishlarga moslashish va yoshlarda ma'rifiy immunitetni shakllantirish qobiliyatini ham ifodalaydi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ma'naviy xavfsizlikning bir necha o'lchamlari mavjud. Birinchisi — aksiologik o'lcham bo'lib, u jamiyatda qaysi qadriyatlar ustuvor ekani, inson ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg'on, erkinlik va mas'uliyat o'rtasida qanday chegara qo'ya olishi

bilan belgilanadi. Axborot jamiyatida aynan qadriyatlar sohasi kuchli ta'sir ostida qoladi, chunki turli madaniy modellar, turmush tarzlari va axloqiy standartlar saralashsiz inson ongiga kirib keladi.

Ikkinchisi — kognitiv o'lcham. Bu insonning axborotni anglash, tahlil qilish, saralash va baholash qobiliyati bilan bog'liq. Bugun ma'naviy xavfsizlik oddiy savodxonlik bilan emas, balki mediasavodxonlik, raqamli savodxonlik, manbani tekshirish, dalil va fikrni farqlash, manipulyatsiyani anglash ko'nikmalari bilan ta'minlanadi. UNESCO mediasavodxonlikni insonning axborotni tanqidiy qabul qilishi, raqamli muhitda xavfsiz harakat qilishi va dezinformatsiyaga qarshi turishi uchun zarur ko'nikmalar majmui sifatida baholaydi[1].

Uchinchisi — identifikatsion o'lchamdir. Axborot jamiyatida shaxs va jamiyat o'zini kim deb bilishi, qaysi madaniy an'analarga tayanishi, milliy o'zlik va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasida qanday muvozanat saqlashi muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy xavfsizlik milliy o'zlikni tashqi dunyodan uzib qo'yish emas, balki uni ochiq muloqot sharoitida saqlash, boyitish va zamonaviy mazmun bilan rivojlantirishdir.

To'rtinchisi — kommunikativ o'lcham. Bu jamiyatda sog'lom muloqot, bahs etikasi, so'z mas'uliyati va ijtimoiy ishonch muhitini saqlash bilan bog'liq. Ijtimoiy tarmoqlarda haqorat, qutblanish, asossiz ayblov, yolg'on xabar va nafrat tili kengaysa, jamiyatning ma'naviy xavfsizligi zaiflashadi. Chunki ma'naviy xavfsizlik faqat shaxsiy ichki holat emas, balki jamoaviy ishonch, o'zaro hurmat va ijtimoiy hamjihatlik bilan ham belgilanadi.

Shu asosda ma'naviy xavfsizlikka quyidagicha mualliflik ta'rifi berish mumkin: ma'naviy xavfsizlik — shaxs, jamiyat va davlatning axborot, g'oya, madaniyat va qadriyatlar sohasidagi destruktiv ta'sirlarga nisbatan ma'rifiy, axloqiy, aksiologik va institutsional barqarorligini ta'minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida ijtimoiy ongning sog'lom rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-falsafiy fenomendir.

Axborot jamiyatida ma'naviy xavfsizlikka tahdidlar avvalgi davrlarga nisbatan ko'proq yashirin, tezkor va ta'sirchan shaklda namoyon bo'ladi. Ilgari g'oyaviy ta'sirlar asosan matbuot, radio va televideniye orqali amalga oshgan bo'lsa, bugun har bir smartfon, ijtimoiy tarmoq sahifasi, videokontent yoki algoritmik tavsiya axborot ta'sirining vositasiga aylanishi mumkin. Shu sababli ma'naviy xavfsizlik masalasi har bir insonning kundalik hayotiga kirib keldi.

Birinchii tahdid — axborotning haqiqatdan uzilishi va posthaqiqat muhitining shakllanishidir. Bunday sharoitda dalil va mantiqiy asosdan ko'ra emotsional ta'sir, ommaviy qiziqish, shaxsiy ishonch va guruhii kayfiyat ustunlik qiladi. Natijada inson haqiqatni bilishga emas, o'z qarashlarini tasdiqlaydigan axborotni izlashga moyil bo'ladi. Bu holat ijtimoiy ongda xolis tahlil emas, balki tezkor reaksiya va ruhiy ta'sirni kuchaytiradi.

Ikkinchi tahdid — mediamanipulyatsiyadir. Mediamanipulyatsiya muayyan axborotni tanlab berish, voqealarni bir tomonlama talqin qilish, ramzlar, obrazlar, qo'rquv yoki umid orqali jamoatchilik fikrini boshqarishga qaratilgan ta'sir shaklidir. Raqamli muhitda bu jarayon algoritmlar orqali yanada kuchayadi. Chunki platformalar foydalanuvchi qiziqishlarini tahlil qilib, unga aynan o'sha qiziqishlarga mos kontentni qayta-qayta taqdim etadi.

Uchinchi tahdid — axloqiy nisbiylik va qadriyatlar ierarxiyasining buzilishidir. Ommaviy madaniyatning ayrim ko'rinishlari insonni chuqur ma'naviy tafakkurdan ko'ra tezkor zavq, tashqi ko'rinish, iste'mol va mashhurlikka yo'naltirishi mumkin. Bunday holatda insonning ichki qadriyatlari tashqi

raqamli ko'rsatkichlar — layk, kuzatuvchi, reyting va trendlar bilan o'lichana boshlaydi.

To'rtinchi tahdid — virtual qaramlik va real ijtimoiy munosabatlarning zaiflashuvidir. Raqamli muhitda uzoq vaqt qolish insonning muloqot madaniyati, diqqat davomiyligi, hissiy barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar bir tomondan yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishi, ikkinchi tomondan, dezinformatsiya, kiberbulling, virtual qaramlik va ijtimoiy mahdudlik kabi salbiy ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkinligi qayd etiladi.<sup>5</sup>

Beshinchi tahdid — sun'iy intellekt va sintetik kontentlar orqali haqiqatga ishonch inqirozining kuchayishidir. Deepfake, ovozni sun'iy yaratish, foto va videolarni soxtalash tirish texnologiyalari haqiqat mezonlarini yanada murakkablashtirmoqda. Bunday sharoitda inson nafaqat yozma xabarni, balki tasvir, ovoz va videoni ham tekshirishga majbur bo'ladi. Bu esa ijtimoiy ishonch, adolat tuyg'usi va fuqarolik mas'uliyati uchun jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida axborot jamiyatiga o'tish davlat siyosati, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy modernizatsiyaning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi elektron hukumatni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish, ta'lim va iqtisodiyotga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi ham mamlakatda raqamli taraqqiyotning yangi bosqichini belgilaydi<sup>[8]</sup>.

Biroq raqamli taraqqiyot faqat texnik yoki iqtisodiy jarayon emas. U ma'naviy-ma'rifiy mazmun bilan to'ldirilmasa, axborot jamiyati inson kamolotiga emas, balki iste'molchilik, yuzakilik va ma'naviy befarqlikka xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun raqamlashtirish jarayoni milliy g'oya, ma'naviy tarbiya, ta'lim sifati, yoshlar siyosati, mediasavodxonlik va axborot xavfsizligi bilan uyg'un olib borilishi zarur.

O'zbekistonda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini saqlashni taqozo etadi. Milliy qadriyatlar shaxsni tarix, til, madaniyat, urf-odat, oilaviy tarbiya va vatanparvarlik bilan bog'laydi. Umuminsoniy qadriyatlar esa inson huquqlari, bag'rikenglik, ilmga intilish, adolat va hamkorlik kabi mezonlarni mustahkamlaydi. Axborot jamiyatida ma'naviy xavfsizlik ana

shu ikki yo'nalishni qarama-qarshi qo'yish emas, balki ularni ijodiy uyg'unlashtirishni talab etadi.

Bu jarayonda yoshlar masalasi alohida ahamiyatga ega. Chunki yoshlar axborot texnologiyalaridan eng faol foydalanuvchi qatlam hisoblanadi. Ular uchun internet ta'lim, muloqot, kasbiy o'sish, ijod va o'zini namoyon qilish maydonidir. Ammo yoshlar yolg'on axborot, zararli kontent, radikal g'oyalar, zo'ravonlik targ'iboti va manipulyativ ta'sirlarga nisbatan ham nisbatan ochiq bo'lishi mumkin. Shu sababli ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda taqiqlar yetarli emas; asosiy e'tibor mustaqil fikrlash, axborotni tekshirish va raqamli muhitda mas'uliyatli harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi zarur.

**Xulosa.** Axborot jamiyati insoniyat taraqqiyotida yangi imkoniyatlar bilan birga yangi ma'naviy muammolarni ham yuzaga keltirdi. Axborotning strategik resursga aylanishi, raqamli platformalarning kundalik hayotga kirib kelishi, ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikriga ta'siri va algoritmik tavsiyalar orqali axborot iste'molining boshqarilishi ma'naviy xavfsizlik masalasini XXI asrning dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammosiga aylantirdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot jamiyatida ma'naviy xavfsizlik faqat tashqi mafkuraviy xurujlardan himoyalaniq emas. U shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati, jamiyatning qadriyatlar barqarorligi, milliy o'zlikning saqlanishi, axborot madaniyati, mediasavodxonlik, raqamli etika va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq murakkab fenomenidir. Shu bois ma'naviy xavfsizlikni taqiqlovchi mexanizm sifatida emas, balki inson kamoloti va jamiyat barqarorligini ta'minlovchi ma'rifiy jarayon sifatida talqin etish maqsadga muvofiq.

Yangi O'zbekiston sharoitida raqamli taraqqiyot va ma'naviy xavfsizlikni uyg'unlashtirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Raqamli texnologiyalar jamiyat modernizatsiyasi, ta'lim, iqtisodiyot va davlat xizmatlari sifatini oshirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ammo bu jarayon milliy g'oya, ma'naviy tarbiya, yoshlar siyosati, axborot xavfsizligi va fuqarolik mas'uliyati bilan bog'lansagina ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Ma'naviy xavfsizlik axborot jamiyatida insonning ma'naviy mustaqilligi, jamiyatning axloqiy barqarorligi va davlatning ma'rifiy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-falsafiy fenomenidir. Uning mohiyatini chuqur anglash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy falsafa, milliy g'oya, sotsiologiya va ma'naviyatshunoslik fanlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

#### ADABIYOTLAR

1. Bell D. Gryadushche postindustrialnoe obshchestvo: opyt sotsialnogo prognozirovaniya. — Moskva: Academia, 1999.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
3. Masuda Y. The Information Society as Post-Industrial Society. — Washington: World Future Society, 1981.
4. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. — London: Routledge, 2001.
5. Bauman Z. Tekuchaya sovremennost. — Sankt-Peterburg: Piter, 2008.
6. Gulamov Sh.M. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil): PhD dissertatsiyasi avtoreferati. — Namangan, 2025.
7. Deepfake va algoritmik manipulyatsiya: yoshlar ongiga tahdidlarning ijtimoiy-falsafiy talqini: PhD dissertatsiya qo'lyozmasi. — Toshkent, 2026.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 oktabrdagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. — URL: <https://lex.uz/docs/-7158604>
10. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 15 apreldagi O'RQ-764-son "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni. — URL: <https://lex.uz/docs/-5960604>
11. UNESCO. Media and Information Literacy. — URL: <https://www.unesco.org/en/media-information-literacy>
12. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers and Learners. — Paris: UNESCO, 2021.